



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

Ichki valyuta bozori sharhi

2025-yil 9 oylik yakunlari bo'yicha


Ichki valyuta bozori sharhi

I. 2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida ichki valyuta bozorida xorijiy valyutaga bo'lgan umumiy talab va taklif hajmlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.


Xorijiy valyutaga bo'lgan talab **42,7 mlrd** AQSH dollarini (*keyingi o'rinlarda - dollar*) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **23,5 foizga** oshdi.

Taklif hajmi 2025-yilning o'tgan davrida **34,4 mlrd** dollarini (*Markaziy bank operatsiyalarini hisobga olmagan holda*) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **24 foizga** o'sdi.

Xorijiy valyutaga talab, mln dollarda



Subyektlar kesimida taklif, mln dollarda



Valyuta bozoridagi taklifning yana bir manbai Markaziy bank tomonidan sotib olingan monetar oltin doirasidagi sterilizatsiya operatsiyalari (*xalqaro zaxiralarning neytrallik tamoyili asosida*) orqali valyuta mablag'larini sotilishi hisobiga ta'minlandi. Bunda ushbu operatsiyalar almashuv kursi shakllanishining fundamental omillariga ta'sir ko'rsatmagan holda bozor mexanizmlari asosida amalga oshirildi.

II. Yuridik shaxslar valyuta taklifining o'sishi sur'ati ularning valyutaga bo'lgan talabi o'sishi sur'atidan yuqori shakllandi.

Yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab 2025-yilning dastlabki 9 oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan **24 foizga** o'sgan bo'lsa, ular tomonidan valyuta taklifi hajmi **37 foizga** oshdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar valyuta taklifining asosiy manbalaridan biri eksport tushumlarining hajmi ushbu davrda **18 foizga** oshib, **13 mlrd** dollarga yetdi. Ushbu eksport tushumlarning **7,1 mlrd** dollari yoki **55 foizi** ichki valyuta bozorida sotildi (*o'tgan yilning mos davriga nisbatan (5,8 mlrd dollar) 22 foizga ko'p*).

Shuningdek, ushbu davrda ichki valyuta bozoriga **6,3 mlrd** dollarlik valyuta mablag'lari banklar tomonidan **xorijiy kreditlar** hisobidan sotildi (*o'tgan yilning mos davriga nisbatan (3,9 mlrd dollar) 61 foizga ko'p*).

Importni moliyalashtirishda ichki bozordan sotib olingan valyuta ulushi biroz kamayib, o'z mablag'lari ulushida biroz oshish kuzatildi. O'tgan yanvar-sentabr oylarida importni moliyalashtirish manbalari tarkibida ichki valyuta bozorida sotib olingan mablag'lar (konvertatsiya) ulushi **64,7 foizni** (*2024-yilda 65,5 foiz*), xorijiy valyutadagi o'z mablag'lari hisobiga importni moliyalashtirish ulushi **24 foizni** tashkil etdi (*2024-yilda 23,1 foiz*).

2024-2025-yillarning yanvar-sentabr oylari davomida importni moliyalashtirish manbalari, foizda



Sotib olingan xorijiy valyutaning asosiy qismi – **51 foizi** ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar, tovarlar va xomashyo importi, **27 foizi** – xorijiy valyutadagi kreditlarni so'ndirish, **18 foizi** – xalq iste'moli tovarlari va dori-darmon mahsulotlari importi, **2 foizi** – xorijiy investorlar daromadlarining repatriatsiyasi va qolgan **4 foizi** – boshqa maqsadlar uchun xarid qilingan.


III. Jismoniy shaxslarning banklar bilan amalga oshirilgan operatsiyalarining ijobiy saldosi ichki valyuta bozorida qo'shimcha taklif manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Aholi tomonidan tijorat banklariga **15,2 mlrd** dollar sotilib, ushbu ko'rsatkich avvalgi yilning mos davriga nisbatan **1,3 barobarga** (*2024-yilda - 11,8 mlrd dollar*) oshdi.


Shu bilan birga, jismoniy shaxslar tomonidan **8,5 mlrd** dollar sotib olinib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan **23 foizga** (*2024-yilda - 6,9 mlrd dollar*) o'sdi.

Umuman olganda, jismoniy shaxslar tomonidan xorijiy valyuta taklifi hajmi unga bo'lgan talab hajmidan **6,7 mlrd** dollarga ortiq bo'ldi (2024-yilning mos davriga nisbatan 1,4 barobar ko'p).

Aholining banklar bilan amalga oshirilgan operatsiyalari, mln. dollarda



Pul o'tkazmalari orqali kelib tushgan valyuta mablag'lari hajmi, mln. dollarda



Ayni paytda, ushbu davrda aholining banklarga valyuta sotuvining asosiy manbai xalqaro pul o'tkazmalari orqali mamlakatimizga **13,9 mlrd** dollari miqdorida valyuta mablag'lari kelib tushgani bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan **24 foizga** (2,7 mlrd dollar) va 2023-yilga nisbatan **66 foizga** (5,5 mlrd dollar) oshdi.

Shuningdek, xalqaro pul o'tkazmalari orqali mamlakatimizdan **1,9 mlrd** dollari miqdorida valyuta mablag'lari chiqib ketgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 127 mln dollarga kamaydi.

IV. Joriy yil boshidan almashuv kursi 6,4 foizga mustahkamlanib, kunlik tebranuvchanlik darajasi ikki barobarga oshdi.


Yanvar-sentabr oylarida milliy valyutaning almashuv kursi dinamikasi ichki valyuta bozoridagi talab va taklif omillari, umumiy makroiqtisodiy tendensiyalar va tashqi iqtisodiy sharoitlar ta'sirida shakllandi.

Ushbu davrda asosiy **savdo hamkorlar valyuta kurslari** dinamikasida rossiya rubli dollarga nisbatan 27 foizga, xitoy yuani – 2,5 foizga, koreya voni – 5 foizga **mustahkamlangan** bo'lsa, qozoq tengesi – 4,6 foizga **qadrsizlandi**. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizning **tashqi raqobatbardoshligini** saqlanib qolishiga hissa qo'shdi. Xususan, iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini ko'rsatuvchi real effektiv kursi dinamikasida yil boshidan buyon **1,5 foizga qadrsizlanish** kuzatilib, tashqi savdo hamkorlarga nisbatan valyuta kursida **real mustahkamlanish** kuzatilmadi.


Shuningdek, **oltin** narxining yuqori sur'atlarda o'sib, bir troya unsiyasi uchun **2610 dollardan 3807 dollargacha** oshishi ichki vayuta bozoriga valyuta tushumlarini ham mos ravishda ko'paytirdi.

Umuman olganda, mamlakatimizda eksport, xorijiy kreditlar va pul o'tkazmalari kanallari orqali valyuta oqimlarining sezilarli darajada oshishi, shuningdek, xorijiy investitsiyalar hajmining o'suvchi dinamikasi hamda importning ma'lum darajada barqarorlashishi ichki valyuta bozorida valyuta kursi mustahkamlanishiga ta'sir etgan omillardan bo'ldi.

Almashuv kursi dinamikasi, so'm/dollar



Almashuv kursi tebranuvchanligi, kunlik




Shu bilan birga, joriy yilning aprel oyidan boshlab so'm almashuv kursining **kunlik tebranishi ikki barobarga oshdi** va moslashuvchan valyuta kursi siyosatini yuritayotgan rivojlanayotgan davlatlar almashuv kurslarining kunlik tebranishlarining **o'rtacha ko'rsatkichiga yaqinlashdi**.

Aholi inflyatsion kutilmalar omillari, respondentlar ulushi

Omillar	2024					2025				
	okt	noy	dek	yan	fev	mar	apr	may	iyun	avg
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	47	51	56	57	63	59	59	57	50	48
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	46	51	57	50	52	48	47	49	45	41
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	31	28	28	22	23	20	18	22	35	31
Transport harajatlarning oshishi	26	30	35	30	31	28	29	32	30	27
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	24	26	26	26	28	28	26	25	22	24
Vayuta kursining o'zgarishi	51	51	55	46	41	39	38	37	27	30
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	28	31	33	25	32	26	26	26	24	22

Almashuv kursi tebranuvchanligi, foizda



*So'm kursining kunlik o'zgarishlari orqali hisoblangan yillik o'rtacha tebranishi moslashuvchan valyuta kursi siyosatini yuritayotgan rivojlanayotgan davlatlar almashuv kurslarining yillik o'rtacha tebranish ko'rsatkichiga yaqinlashgan.

V. Almashuv kursining mustahkamlanishi natijasida iqtisodiyotimizda milliy valyutaga bo'lgan ishonch oshishi bilan bog'liq bir qator ijobiy makrotendensiyalar kuzatilmoqda.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida:

milliy valyutadagi hisob-kitoblar hamda jamg'arishning faollashishi hisobiga bank tizimidagi **milliy valyutadagi depozitlar** hajmi yil boshidan **23 foizga** oshdi va **205 trln** so'mga yetdi;

aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari **12 foizgacha** sekinlashdi (*yil boshida 14-15 foiz*) hamda kutilmalar shakllanishida valyuta **kursi omili ikki barobarga qisqardi**;

depozit va kreditlarning dollarlashuv darajasi pasayish dinamikasi tezlashdi (*kreditlar bo'yicha 41 foizdan 37 foizgacha, depozitlar bo'yicha 26 foizdan 23 foizgacha*);

mijozlarning banklarga jami valyuta sotuvi **33 foizga** oshib, **32 mlrd** dollarga yetdi.

Ushbu tendensiyalarning davom etishi milliy valyutaga bo'lgan ishonchni kuchaytirib, so'mdagi aktivlar jozibadorligini oshishiga va umuman olganda makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy hissa qo'shadi.